



YETTI YOSHLI BOLALARDA KUZATILADIGAN KRIZISLARNING SABABLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH USULLARI

Xasanova Madinabonu Soyibjon qizi

Andijon Davlat Pedagogika Instituti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi

2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Yetti yoshli bolalarda o'sish jarayonida krizislar yuzaga keladi. Sabablari ichki va tashqi o'zgarishlar bilan bog'liq. Ushbu maqola bolalardagi krizislarning sabablari va ularni bartaraf etish usullarini ko'rib chiqadi, hamda otalarga va tarbiyachilar uchun tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: Yetti yoshli bolalar, rivojlanish krizisi, psixologik o'zgarishlar, adabtatsiya jarayoni

Аннотация: Семилетние дети переживают кризисы роста. Причины связаны с внутренними и внешними изменениями. В статье рассматриваются причины возникновения кризисов у детей и пути их преодоления, а также даются рекомендации для родителей и лиц, осуществляющих уход.

Ключевые слова: Дети семи лет, кризис развития, психологические изменения, процесс адаптации.

Abstract: Seven-year-old children experience growth crises. The reasons are related to internal and external changes. The article examines the causes of crises in children and ways to overcome them, and also provides recommendations for parents and caregivers.

Keywords: Seven-years-old children, developmental crisis, psychological changes, adabtation process.

Har bir bolaning shaxs sifatida shakllanishida muayyan davriy bosqichlar mavjud bo'lib, ulardan biri-yetti yoshdagi o'tish davridir. Bu yoshda bola endi maktabga qadam qo'yadi, ijtimoiy muhit o'zgaradi, mas'uliyat, talab va intizomga bo'lgan qarashlar shakllana boshlaydi. Aynan shu o'zgarishlar fonida bola psixologik



jihtadan ichki ziddiyatlarga, ya'ni krizislarga duch keladi. Yetti yoshdagi krizis bolaning rivojida muhim burilish nuqtasi bo'lib, bu davrda to'g'ri yondashuv bo'lmasa, bola salbiy xulq-atvor shakllanishi, o'qishga, o'z-o'zini baxolashga nisbatan noto'g'ri qarashlar paydo bo'lishi mumkin. Shu sababli, ushbu maqolada yetti yoshli bolalarda kuzatiladigan krizislarning sabablari va ularni bartaraf etish usullari haqida so'z yuritiladi.

Maqola mavzusining mazmunidan kelib chiqib, yetti yoshli bolalarda kuzatiladigan krizis holatlarini chuqurroq tahlil qilish maqsadida, avvalo ushbu yosh davrining psixologik va jismoniy xususiyatlariga e'tibor qaratish zarur.

Hayotning yettinchi yilida bolaning rivojlanishidagi juda muhim integral davrning davomi bo'lib, u besh yoshda boshlanadi va yeti yoshda tugaydi. Yettinchi yilda besh yoshda paydo bo'lgan yangi aqliy shakllanishlar davom etmoqda. Shu bilan birga, bu shakllanishlarning yanada yangi yo'nalishlari va rivojlanish uchun psixologik sharoit yaratadi. Olti yoshdan tana faol ravishda yetuklashadi. Bolaning vazni oyiga 200 grammga, bo'yi 0,5sm ga oshadi, tana nisbatan o'zgaradi. 7 yoshli bolaning o'rtacha bo'yi 113-122sm, o'rtacha vazni 21-25 kg. Miya sohasi deyarli kattalarni kabi shakllanadi. Ossifikatsiya jarayonlari davom etmoqda, ammo umurtqa pog'onasihali ham beqaror. Katta va ayniqsa kichik mushaklar rivojlanmoqda. Qo'l mushaklarining koordinatsiyasi jadal rivojlanadi. Umumiy jismoniy rivojlanish bolaning nozik motorika ko'nikmalarini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq. Barmoqlarni o'rgatish-bu bolaning aql-zakovatini oshirish, nutqni rivojlantirish va yozishga tayyorgarlik ko'rish vositasi. Shaxsiy rivojlanish ongdagi o'zgarishlar ichki harakat rejasi deb ataladigan narsaning paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi-nafaqat visual tarzda, balki ongdagi turli g'oyalar bilan ishlash qobiliyatidir.[1,136-137] Bundan tashqari yeti yoshli bola shaxsiyati yanada barqarorlashadi va "men" tushunchasi ancha chuqurlashadi. Bu yoshda bola o'zini mustaqil inson sifatida anglay boshlaydi-u endi faqat o'yinda yoki harakatda emas, balki ichki dunyosida ham o'ziga xos bo'lgan fikr va his-tuyg'ular borligini tushunadi. U o'zini boshqa odamlardan ajrata oladi, o'z qobiliyatlari, kamchiliklari va kuchli jihatlari haqida fikr yuritadi. Bu esa o'z-o'zini baxolash, o'ziga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabat shakllanishiga olib keladi. Shu



bilan birga, bola o'zgalar fikrigaham e'tibor bera boshlaydi-ya'ni "men qandayman?" savoli bilan bir qatorda "boshqalar meni qanday ko'radi?" degan savol ham paydo bo'ladi. Bu o'z navbatida bolaning o'zini tutishiga, o'ziga ishonchiga va ijtimoiy muomalasiga sezilarli ta'sir qiladi. "Men" tushunchasining shakllanishi bolaning shaxsiy qarorlar qabul qilishiga, javobgarlikni tushunishiga ham zamin yaratadi.

"Men" tushunchasi kuchaygani sayin, u o'zini avvalgidan ko'ra mustaqilroq his eta boshlaydi. Bu ichki o'zgarishlar bolaning tashqi xulq-atvorida ham namoyon bo'ladi. Bola endi ota-ona yoki kattalarning aytganini so'zsiz bajarishga harakat qilmaydi, balki ularning talablariga nisbatan tanqidiy qarash, savollar berish yoki qarsgilik ko'rsatish holatlari ko'payadi. Bu holat yeti yosh krizisining asosiy belgilaridan biri. Bola o'zining ichki dunyosini, qarashlari va shaxsiy fikrini himoya qilishga intiladi. Uning xatti-harakatlarida keskinlik, o'zgaruvchanlik, ba'zida esa isyonkorlik ko'zga tashlanadi. Bu davrda hissiyotlari chuqurlashadi, u o'z holatini atrofdagilarga tushuntirishga harakat qiladi, lekin bu har doim ham muvaffaqiyatli chiqmaydi. Natijada, bola o'zini tushunilmagan his qilishi, norozilik bildirishi mumkin. Bu inqiroz davrining yana bir muhim jihati-bolaning ichki va tashqi hayoti o'rtasida tafovut yuzaga keladi. U ichki dunyosida mustaqil bo'lishni xohlaydi, biroq tashqi muhit-oila, maktab, jamiyat-hali undan ko'proq itoatkorlik va moslashuvchanlikni kutadi, natijada bolaning ichki va tashqi dunyosi o'rtasida ziddiyatlar yuzaga keladi. Bu borada Erik Erikson o'zining rivojlanish nazariyasida, aynan 7 yoshda bolalar ishonch va mustahkamlik bosqichidan ijtimoiy moslashuvchanlik bosqichiga o'tishga harakat qiladi, ammo ijtimoiy tizimdan kelayotgan talablar bu jarayonni qiyinlashtiradi[2] degan. Shuningdek, Lev Vygotskiy ham bolaning ijtimoiy o'rganish jarayonida tashqi muhitning ta'sirini va muvozanatni topish zarurligini ta'kidlagan.[3]

Endi maqolaning asosiy maqsadiga o'tsak, Yetti yoshli bolalarda kuzatiladigan krizisni qanday bartaraf etish mumkin? Birinchi navbatda boladagi empatiyaga e'tibor qaratish kerak. Empatiya-bu boshqalar hissiyotlarini tushunish va ularni o'z his tuyg'ulari bilan bog'liq ravishda javob berish qobiliyatidir. Bola o'z tashvishlarini ifoda etishning qiyinligini his qilishi mumkin. Empatiya orqali ota-onalar va



o'qituvchilar bolaning xis-tuyg'ularini tushunib, ularni qo'llab-quvvatlaydilar. Misol uchun, agar bola o'zini yolg'iz yoki tushunilmayotgan his qilsa, empatiya ko'rsatish orqali katta yoshdagilar uni tasavvur qilishga va uning holatini anglashga harakat qilishadi, bu esa bolaga tinchlik va ishonch beradi. So'ng bolaning hissiyotlarini ifoda etishga imkoniyat berish kerak, bunda bola o'zini yaxshiroq tushunadi va o'zining hissiy holatini boshqarish uchun zarur bo'lgan vositalarini o'rganadi. Bola uchun o'zini ifoda etishning bir necha yo'llari mavjud. Birinchidan, ijodiy faoliyatlar-rasm chizish, musiqa eshitish yoki musiqa asboblari o'ynash, hikoyalar yozish-bolaga o'z hissiyotlarini tashqi dunyo bilan bo'lishish imkonini beradi. Ikkinchidan, o'yin- bu bola uchun juda muhim ifoda etish usulidir. Bolalar ko'pincha o'z hissiyotlarini o'ynash orqali ifoda etadilar. Bundan tashqari, bola o'zini ifoda etish uchun tashqi ko'rinishdan foydalanish mumkin. Masalan, bolaga o'z kiyimlarini tanlash yoki o'zi xohlagan faoliyat bilan shug'ullanishiga ruxsat berish mumkin.

Bulardan tashqari bu inqirozni bartaraf etishda pedagoglarning o'rni ham katta ahamiyatga ega. Bu holatda pedagog bola bilan empatiya holatida ota-onalar bilan teng muloqot qilish kerak. Chunki ko'p hollarda bola o'z his-tuyg'ularini ota-onalarga emas, balki tarbiyachi va pedagoglarga aytadi. Shuning uchun pedagoglar bolaga o'zini anglashda yordam berish, uning ichki muammolarini tushunish va o'zini erkin ifoda etish imkoniyatlarini yaratishda katta rol o'ynaydi.[4] Bu usulni eng asosiy foyda beradigan tomoni bola nafaqat krizis davridan halos beradi, balki u yangi muhit va o'z tengdoshlari orasida tezroq o'z o'rnini topadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, 7 yoshdagi bolalar rivojlanishning o'ziga xos davrini boshdan kechirmoqda, bu davrda o'z xis-tuyg'ulari va jamiyatdan kutgan talablar o'rtasida ziddiyatlarga duch keladilar. Bu krizislarning sababi bola o'zini anglash va ijtimoiy rollarga moslashishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar bilan bog'liq. Ota-onalar va pedagoglar bu jarayonda bolaga to'g'ri yo'naltirishlar, qo'llab-quvvatlash va o'zini ifoda etish imkoniyatlarini yaratish orqali krizislarni yengishga yordam beradi. Xavfsiz muhit yaratish, bolaga xis-tuyg'ularini tushunishga yordam berish va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish muhimdir. Shuningdek, ota-ona va pedagoglar bolaning yangi ijtimoiy rollarga moslashishini qo'llab-quvvatlashlari kerak.



FOYDALANILGAN ADABIYOT:

- 1)Tadqiqotlar.uz
- 2)Erikson,E.H.Childhood and Society.W.W.Norton &Company,1950.
- 3)Vygotskiy,L.S. Thought and Language.MIT Press,1986.
- 4)Xasanov.M. “Pedagogik yondashuvlar va ta’lim metodlari”,Ta’lim va rivojlanish jurnali,2023